

Turkiy xalqlar madaniyati va tarixini targ'ib qilish yo'lidagi hamkorlik

Bugun, 8-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bexzod Yuldashev Xalqaro turkiy akademiyasi prezidenti Fuzuli Majidli bilan uchrashdi. Uchrashuvda O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov va Xalqaro turkiy akademiyasi doimiy kotibi Asxat Kessikbayevlar ham ishtirok etd.



Uchrashuv davomida mehmonlarga O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, xususan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotiga doir qilinayotgan ilmiy ishlar xususida ma'lumotlar berildi.





O'z o'rnida ular ham Ostona shahridagi Xalqaro turkiy akademiyasini qadim davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan turkiy dunyo tarixi, tili, adabiyoti va madaniyatini tadqiq qilish, turkiy o'lkalarning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni va hissasini birlamchi manbalar asosida yorituvchi butun turk dunyosiga aloqador ilmiy tadqiqotlarni o'zaro uyg'unlashtiradigan yagona ilmiy markaz vazifasini bajarayotgani haqida so'zlab berishdi. Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad bugunga qadar kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotgan O'zbekiston Fanlar akademiyasini Xalqaro turkiy akademiya a'zoligiga taklif etishdan iborat ekanligini aytishdi. Turkiy xalqlar tarixini O'zbekiston tarixisiz tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlashdi. Suhbat so'ngida hamkorlik masalalari va kelgusi rejalar muhokama qilindi.